Ключевые слова: коммерческие банки, ресурсная база, депозит, кредит, банковский капитал, привлечённые средства, заёмные средства, пассивные операции, финансовая устойчивость, депозитная политика, кредитный портфель.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur o'zgarishlar, global moliyaviy bozorlarning nisbiy beqarorligi hamda geosiyosiy keskinliklarning kuchayishi bank tizimi faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro savdo aloqalaridagi uzilishlar, inflyatsion bosimlarning ortishi, moliya bozorlaridagi noaniqliklar hamda ayrim hududlarda yuzaga kelayotgan siyosiy-iqtisodiy ziddiyatlar moliyaviy institutlar, xususan tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Bunday



sharoitda bank tizimining moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan uning resurs bazasi qanchalik mustahkam va diversifikatsiyalashganligiga bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklarining resurs bazasi bank faoliyatining asosiy moliyaviy manbai hisoblanib, u bankning kreditlash imkoniyatlari, investitsion faoliyati hamda umumiy moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Bank resurslari asosan bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan shakllanib, ular iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish hamda mamlakat iqtisodiy o'sishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois banklar resurs bazasini samarali shakllantirish va boshqarish masalalari zamonaviy bank tizimi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda global moliyaviy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan bir sharoitda banklarning resurs bazasi tarkibi va manbalari ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Xususan, banklar tomonidan depozit siyosatini takomillashtirish, kapital bazasini mustahkamlash, moliya bozorlaridan resurslarni jalb qilish hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali resurs bazasini kengaytirish jarayonlari kuzatilmoqda. Bu esa banklarning moliyaviy vositachilik rolini kuchaytirish hamda iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarida resurs bazasi shakllanishining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, uning tarkibi va manbalarini tahlil qilish hamda bank resurslarini samarali boshqarish yo'llarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot tijorat banklarining resurs bazasi shakllanishining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlashda uning ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida resurs bazasining shakllanishi va uning bank faoliyatidagi o'rni iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Banklarning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini maksimal darajada jalb qilish hamda ularni yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltirishdan iborat. Shu jihatdan bank kapitali va resurs bazasining barqarorligi bank tizimi samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlar M. Goodfriend va B. McCallum tadqiqotlarida bank kapitalining risklarni boshqarishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Ularning fikricha, texnologik risklar bank kreditlari rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va kredit resurslarini jalb qilish jarayonini murakkablashtirishi mumkin [1]. Shu sababli banklar tadbirkorlik loyihalarining muayyan qismini o'z kapitali hisobidan moliyalashtirishlari maqsadga muvofiq bo'lib, bu kapital yetariligi talablarining oshishiga olib keladi.

Bank kapitali va likvidlik o'rtasidagi bog'liqlik masalasi D. Diamond va R. Rajan tomonidan o'rganilgan. Ularning ta'kidlashicha, banklar depozitlar orqali likvidlik yaratish imkoniyatiga ega. Biroq iqtisodiy noaniqlik kuchaygan sharoitda depozitlar barqarorligi pasayishi mumkin va bunday holatda bank kapitalining roli ortadi. Mualliflar bank kapitalining oshishi moliyaviy tanglik ehtimolini kamaytirishini, shu bilan birga likvidlik yaratish imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklashi mumkinligini qayd etadi [2]. Shuningdek, optimal kapital tuzilmasi likvidlikni yaratish, bank muammolari bilan bog'liq xarajatlar hamda qarz oluvchilarni majburiyatlarini bajarishga undash imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Bank kapitalining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli D. Miles, J. Yang va G. Marcheggiano tomonidan ham tadqiq etilgan. Ularning fikricha, bank aktivlarining katta qismi yo'qotilganda kapital hisobidan moliyalashtirish qarzgacha nisbatan samaraliroq hisoblanadi. Sababi, kapital yo'qotishlarni qoplash uchun "bufer" vazifasini bajaradi va bank inqirozi ehtimolini kamaytiradi [3]. Bu esa iqtisodiyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yirik iqtisodiy yo'qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bank kapitalini tartibga solish masalalari D. Besanko va G. Kanatas tadqiqotlarida ham o'rganilgan. Ularning fikriga ko'ra, bank kapitalining bozor qiymati o'zgarishi aksiyalar narxiga ta'sir ko'rsatadi va bu jarayon majburiy qayta kapitallashuv ehtiyojini yuzaga keltirishi mumkin. Aksiyalar narxining pasayishi bank menejerlari egalik qiladigan ulushning nisbatan kichikligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin [4]. Shuningdek, bank kapitali qiymatining pasayishi regulyatorlar aralashuvining kuchayishiga olib keladi va bu jarayon bank faoliyatida foizsiz xarajatlarning ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

Global moliyaviy inqirozdan keyingi davrda bank kapitalining pul-kredit siyosatiga ta'siri S. Muduli va H. Behera tomonidan o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kapitalning riskka nisbatan o'lchangan aktivlar nisbati (CRAR) yuqori bo'lgan banklar resurslarni nisbatan arzonroq jalb qiladi hamda pul-kredit siyosati impulsarini iqtisodiyotga samaraliroq yo'naltiradi [5]. Shu bilan birga, banklarda muammoli aktivlar ulushining yuqoriligi pul-kredit siyosati ta'sirining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Shuningdek, bank kapitali siyosiy va iqtisodiy noaniqliklarning bank faoliyatiga ta'sirini kamaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kapital yetarililigini barqaror darajada ushlab turish orqali bunday noaniqliklarning bank sektoriga ta'sirini sezilarli darajada yumshatish mumkin [6].

Moliyaviy aktivlarni baholash va kapitallashuv darajasi masalalari F. Hunt tomonidan tahlil qilingan. U kapitallashuv stavkasi yillik sof operatsion daromadni aktiv qiymatiga bo'lish orqali aniqlanishini ta'kidlaydi [7]. Kapitallashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, aktivlarning bahosi shunchalik past bo'ladi va bu investorlar kutayotgan rentabellik darajasi bilan teskari bog'liqdir.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham bank resurs bazasi shakllanishining nazariy asoslarini tadqiq qilganlar. Jumladan, T. Bobokulov, U. Azizov va T. Karaliyev fikriga ko'ra, kredit tashkilotlarining resurslari bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar yig'indisidan iborat bo'lib, ular bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda foydalaniladi hamda balansning passiv qismida aks etadi [8].

Professor Sh. Abdullayeva ta'kidlashicha, tijorat banklarining resurs bazasi bankning kredit potensialini belgilaydi. Mazkur resurslar turli kreditlar berish, investitsiyalarni moliyalashtirish hamda boshqa aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [9].

A. Omonov o'z ilmiy tadqiqotlarida tijorat banklari resurslarini iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish hamda bankning xususiy kapitalini shakllantirish orqali vujudga keladigan moliyaviy resurslar majmui sifatida talqin etadi. Uning fikriga ko'ra, bank resurslari bank faoliyatining asosiy moliyaviy manbai hisoblanib, ular bank tomonidan turli aktiv operatsiyalarni amalga oshirish, xususan kreditlash, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish hamda boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida foydalaniladi [10].

Shuningdek, U.D. Ortiqov bank resurslarini bank siyosati doirasida bank faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan, bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'laridan tashkil topgan moliyaviy imkoniyatlar yig'indisi sifatida izohlaydi [11].


Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, tijorat banklari resurs bazasi bank faoliyatining barqarorligi, kreditlash hajmi hamda moliyaviy vositachilik samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois bank resurslarini shakllantirish manbalari va ularning samaradorligini oshirish masalalari zamonaviy bank tizimi rivojlanishida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida deduktiv va induktiv metodlar, shuningdek, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik usullar hamda tizimli tahlil metodlaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar


Bank resurslari bazasi o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lar va qarzga olingan mablag'lar hisobiga shakllanadi. Jalb qilingan resurslar banklarga yanada samarali rivojlanish va o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkonini berib, depozit operatsiyalari foyda olish jarayonining asosiy manbalaridan biri sifatida qaraladi.



1-rasm. Tijorat banklari resurslarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida tijorat banklari resurslarni shakllantirish jarayoniga katta ahamiyat bermoqda. Shu sababli, tijorat banklari resurslarini shakllantirish tizimida muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu o'zgarishlarga rasmda keltirilgan omillar ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklari, boshqa xo'jalik subyektlari kabi, o'z xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslarga ega bo'lishi zarur. Tijorat banklarining resurs bazasini turlariga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: bankning o'z mablag'lari, ularga tenglashtirilgan mablag'lar, shuningdek jalb qilingan va qarz mablag'larini.



2-rasm. Tijorat banklari resurslarining shakllanish jihatdan tarkibiy tasnifi

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalar orqali shakllanadi va bank balansining passiv qismida aks etadi. Bank resurslarini ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. bankning o'z mablag'lari;
2. jalb qilingan mablag'lar.

O'z mablag'lari tarkibiga ustav kapitali, mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun zahira jamg'armasi, foydani ushlab qolish natijasida shakllangan boshqa mablag'lar, shuningdek yil davomida taqsimlanmagan foyda kiradi. Ushbu kapital turi mamlakatimiz tijorat banklari amaliyotida umumiy resurslarning taxminan 5 foizdan 25 foizgacha bo'lgan qismini tashkil etadi.

O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda barqaror sur'atlarda rivojlanib, xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashuvi ortib bormoqda. Bu jarayonlar natijasida banklarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, ularning resurs bazasi sezilarli darajada kengaymoqda. Xususan, 2021–2025-yillar davomida bank tizimidagi jami kreditlar va depozitlar hajmi izchil o'sib borgan bo'lib, bu banklar faoliyatining kengayishi hamda mijozlar ishonchining ortib borayotganini ko'rsatadi.

1-jadval. 2021-2025-yillarda O'zbekiston bank tizimidagi kreditlar va depozitlar dinamikasi (1-yanvar holatiga, mlrd. so'mda) [12]

Yillar	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
2021	276 975	54 888	222 087	114 747	27 404	87 343
Davlat ulushi mavjud banklar	244 484	48 040	196 444	82 461	17 783	64 678
Boshqa banklar	32 491	6 848	25 643	32 286	9 620	22 666
2022	326 386	69 496	256 889	156 190	37 306	118 884
Davlat ulushi mavjud banklar	280 074	55 854	224 220	104 248	23 007	81 241
Boshqa banklar	46 312	13 643	32 669	51 942	14 299	37 643

2023	390 049	100 949	289 100	216 738	63 124	153 614
Davlat ulushi mavjud banklar	324 681	73 166	251 515	135 534	31 399	104 135
Boshqa banklar	65 368	27 783	37 586	81 203	31 725	49 479
2024	471 406	148 621	322 784	241 687	86 345	155 342
Davlat ulushi mavjud banklar	333 298	76 866	256 432	124 358	37 523	86 835
Boshqa banklar	138 107	71 756	66 352	117 329	48 822	68 507
2025	533 121	177 532	355 589	308 692	122 421	186 272
Davlat ulushi mavjud banklar	366 731	92 698	274 033	154 511	53 290	101 221
Boshqa banklar	166 391	84 835	81 556	154 181	69 130	85 051

1-jadvalda 2021–2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimidagi kreditlar va depozitlar hajmi yillik kesimda, 1-yanvar holatiga keltirilgan. Ko'rsatkichlar jami miqdor bilan bir qatorda jismoniy va yuridik shaxslar kesimida, shuningdek davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar kontekstida taqdim etilgan. Bu bank sektorining rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu ma'lumotlar banklarning resurs bazasini shakllantirish jarayonini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki depozitlar bank resurs bazasining asosiy tashqi manbalaridan biri hisoblanadi, kreditlar esa ushbu resurslarning yo'naltirish yo'nalishini aks ettiradi.

Kredit portfeli dinamikasiga e'tibor qaratilsa, jami kreditlar hajmi 2021-yildagi 276,98 trln so'mdan 2025-yilda 533,12 trln so'mga yetgani kuzatiladi. Bu qariyb 92 foizlik o'sishni anglatadi. Kreditlar asosan yuridik shaxslarga ajratilib, 2025-yilda jami kreditlar hajmining 67 foizini (355,59 trln so'm) tashkil etgan. Bu holat yuridik shaxslarni kreditlashning bank faoliyatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini, shuningdek ularning iqtisodiyotdagi faol ishtirokini ko'rsatadi.

Ayniqsa, 2024–2025-yillarda kreditlash hajmidagi sezilarli o'sish xususiy banklar faoliyatining faollashuvi bilan izohlanadi. 2023-yilda boshqa banklar tomonidan jami 65,37 trln so'mlik kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 138,11 trln so'mga, 2025-yilda esa 166,39 trln so'mga yetgan. Bu 2023–2025-yillar oralig'ida kredit portfelining 2,5 baravardan ortiq oshganini anglatadi. Mazkur o'sish kreditlash bozorida raqobat muhitining kuchayib borayotgani hamda xususiy banklarning bozor ulushini faol kengaytirayotganidan dalolat beradi.

Xususiy banklar zamonaviy bank xizmatlarini taklif qilish, mijozlarga moslashtirilgan kredit mahsulotlarini ishlab chiqish hamda tezkor va qulay xizmat ko'rsatish orqali mijozlar e'tiborini jalb qilmoqda. Shuningdek, ular raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, onlayn kreditlash tizimlarini rivojlantirish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali o'z raqobat ustunliklarini mustahkamlab bormoqda. Natijada mijozlar aynan moslashuvchanlik, shaffoflik va xizmat sifati tufayli xususiy banklarga murojaat qilishga ko'proq intilmoqda.

2021-yilda jami depozitlar hajmi 114,75 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 308,69 trln so'mga yetgan. Depozitlarning asosiy qismi yuridik shaxslarga tegishli bo'lib, 2025-yilda jami depozitlarning 60,3 foizini (186,3 trln so'm) tashkil etgan. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarning depozitlari hajmi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Xususan, 2021-yildagi 27,4 trln so'm miqdoridagi jismoniy shaxslar depozitlari 2025-yilda 122,42 trln so'mga yetgan, ya'ni qariyb to'rt baravarlik o'sish kuzatilgan. Bu aholi jamg'armalarining ortib borayotgani hamda bank tizimiga bo'lgan ishonchning mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

2021–2025-yillar davomida davlat banklarida jami kreditlar hajmi 244,48 trln so'mdan 366,73 trln so'mga yetgan bo'lsa, boshqa banklarda bu ko'rsatkich 32,49 trln so'mdan 166,39 trln so'mga oshgan. Xususiy banklar kreditlash hajmini sezilarli darajada kengaytirishga erishgan. Bu xususiy sektorning kredit bozoridagi faolligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Depozitlar dinamikasida ham shunga o'xshash tendensiyalar kuzatiladi. 2021-yilda boshqa banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi 32,29 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 154,18 trln so'mga yetgan. Shu davrda davlat ulushi mavjud banklarda depozitlar hajmi 82,46 trln so'mdan 154,51 trln so'mga oshgan. Bu holat xususiy banklarning aholi va yuridik shaxslar bilan ishlash strategiyasi samarali yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2021–2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimi sezilarli darajada rivojlangan. Kreditlash va depozitlar hajmi barqaror o'sib borgan bo'lib, bu banklar resurs bazasining mustahkamlanayotganidan va iqtisodiyotda pul aylanishining faollashganidan dalolat beradi. Xususiy banklarning bozor ulushi ortib borishi mamlakat moliya tizimida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillar davomida tijorat banklarining kredit va depozitlari o'rtasidagi nisbat ham tahlil qilingan. Ushbu ko'rsatkich bank tizimining resurs bazasini jalb qilish qobiliyati va moliyaviy



barqarorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Umumiy tendensiyadan ko'rinib turibdiki, mazkur davrda jamg'armalar hajmi oshib borgan bo'lsa-da, kreditlar hajmining o'sish sur'ati nisbatan yuqori bo'lgan. 2021-yilda kredit/depozit nisbati 241,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 172,7 foizgacha pasaygan, ya'ni depozitlar hisobidan moliyalashtirish darajasi nisbatan yaxshilangan.

2-jadval. 2021-2025-yillarda tijorat banklarining jami kreditlari va depozitlari o'rtasidagi nisbat [12]

Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Kreditlar (mlrd. so'mda)	276 975	326 386	390 049	471 406	533 121
Depozitlar (mlrd. so'mda)	114 747	156 190	216 738	241 687	308 692
Kredit/depozit nisbati – jami (foizda)	241,4	208,9	179,9	195,0	172,7
Kredit/depozit nisbati – davlat banklari (foizda)	296,5	268,6	239,6	267,9	237,4
Kredit/depozit nisbati – boshqa banklar (foizda)	100,6	89,1	80,5	117,7	107,9

Davlat ulushi mavjud banklar bo'yicha ko'rsatkichlar bank tizimidagi resurslar yetishmovchiligi masalasini yanada aniqroq namoyon etadi. Jumladan, 2021-yilda ushbu banklarda kredit/depozit nisbati 296,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ham bu ko'rsatkich yuqori darajada (237,4 foiz) saqlanib qolgan. Bu holat davlat banklarining kredit faoliyati katta hajmda bo'lishiga qaramay, ularning depozit bazasiga nisbatan yuqori darajada kredit ajratayotganini anglatadi.

Boshqa (xususi va chet el kapitali ishtirokidagi) banklar bo'yicha esa mutanosiblik nisbatan maqbul darajada shakllangan. 2021-yilda bu banklarda kredit/depozit nisbati 100,6 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 7,3 foiz punktga oshgan. Bu esa mazkur banklarning kredit faoliyati asosan o'z depozit bazasiga tayanayotganini ko'rsatadi va ularning likvidlik pozitsiyasi davlat banklariga nisbatan barqarorroq ekanligini bildiradi.

Umuman olganda, ko'rsatkichlar bank sektorida depozitlar jalb qilish salohiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat ulushi mavjud banklar tomonidan ajratilgan kreditlar hajmining nisbatan yuqoriligi ularning barqaror resurs manbalarini kengaytirish zaruratini ko'rsatadi. Shu bois kredit faoliyatining resurs bazasi bilan muvofiqligini ta'minlash hamda risklarni boshqarish samaradorligini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari resurs bazasi bank faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bank resurslari asosan o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lar hamda qarzga olingan mablag'lar hisobiga shakllanib, ular banklarning kreditlash faoliyati, investitsiya jarayonlari hamda boshqa moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish uchun asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, depozit operatsiyalari banklar resurs bazasining asosiy qismini tashkil etib, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

2021–2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimi faoliyatida ijobiy rivojlanish tendensiyalari kuzatildi. Xususan, bank tizimida kreditlar va depozitlar hajmi barqaror ravishda oshib bordi. Bu esa banklarning resurs bazasi kengayib borayotganini hamda bank tizimiga nisbatan aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar depozitlarining sezilarli darajada o'sishi aholining jamg'arma qilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, xususi banklar faoliyati so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashgan. Ularning kreditlash hajmi va depozit jalb qilish ko'rsatkichlari tez sur'atlarda oshib bormoqda. Bu jarayon bank sektorida sog'lom raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Xususi banklar tomonidan zamonaviy bank xizmatlari, raqamli texnologiyalar hamda mijozlarga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish tizimining joriy etilishi ularning bozor ulushini kengaytirishga imkon yaratmoqda.

Shu bilan birga, ayrim davlat ulushi mavjud banklarda kredit va depozitlar o'rtasidagi nisbatning yuqori darajada saqlanib qolayotgani resurs bazasini yanada diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu holat ushbu banklarning kredit faoliyati ma'lum darajada tashqi moliyaviy manbalarga tayanayotganini anglatadi. Shu sababli, mazkur banklarda depozit bazasini kengaytirish, resurslarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda risklarni boshqarish tizimini yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash, depozit siyosatini takomillashtirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda bank tizimida raqobat muhitini kuchaytirish orqali ularning



moliyaviy barqarorligini yanada oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida bank tizimining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini kuchaytirib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Goodfriend, M., & McCallum, B. (2007). Banking and interest rates in monetary policy analysis. *Journal of Monetary Economics*, 54(5), 1480–1507.
2. Diamond, D. W., & Rajan, R. G. (2000). A theory of bank capital. *Journal of Finance*, 55(6), 2431–2465.
3. Miles, D., Yang, J., & Marcheggiano, G. (2013). Optimal bank capital. *Economic Journal*, 123(567), 1–37.
4. Besanko, D., & Kanatas, G. (1996). The regulation of bank capital: Do capital standards promote bank safety? *Journal of Financial Intermediation*, 5(2), 160–183.
5. Muduli, S., & Behera, H. (2023). Bank capital and monetary policy transmission in India. *Journal of Asian Economics*, 84, 101512.
6. Mendy, L. L., Yang, S. Y., & Shi, W. Z. (2023). Bank capital and economic policy uncertainty. *Finance Research Letters*, 52, 103–115.
7. Hunt, F. (2021). Capitalization rate and investment valuation. *Journal of Real Estate Finance and Economics*, 62(4), 567–582.
8. Azizov, U., Karaliyev, T., & Bobokulov, T. (2018). Bank ishi (o'quv qo'llanma). Toshkent: Iqtisod-Moliya.
9. Abdullayeva, Sh. Z. (2019). Bank ishi (o'quv qo'llanma). Toshkent: Iqtisod-moliya.
10. Omonov, A. A., & Koraliev, T. M. (2018). Pul va banklar. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
11. Ortiqov, U. D. (2008). Bank ishi asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
12. Bank.uz (2026). O'zbekiston banklari va bank xizmatlari haqida axborot portali. Mavjud: <https://www.bank.uz> (murojaat qilingan sana: 2026-yil).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100